

IQLIMLASHTIRILGAN DORIVOR O'SIMLIKlardan XALQ TABOBATIDA FOYDALANISH

Qurbonova Salima Shuxratovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti «Kimyo» kafedrasida o'qituvchi stajyori

Boboqulova Maqsuda To'xtapovlat qizi

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti "Kimyoviy texnologiya" yo'nalishi
104-22 guruh talabasi*

Hozirgi kunda tibbiyotda ishlatiladigan dori vositalarining qariyb uchdan bir qismini o'simliklardan olinadigan dorivor vositalar tashkil etadi. Keyingi yillarda efir moylari, o'simliklardan tayyorlanadigan choylar va ularning alohida komponentlariga bo'lgan talabning oshib borishi tufayli ularni ishlab chiqarish muhim dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Yangi dori vositalarini yaratish uchun farmatseftlar tomonidan sintetik moddalar ko'plab qo'llanilmoqda, ammo shunga qaramay bu borada tabiiy moddalar, jumladan, efir moylari va dorivor o'simliklarning ahamiyati ancha yuqori bo'lib turibdi. Dorivor o'simliklar biologlar, mikrobiologlar, immunologlar, pul'manologlarning diqqatini jalb qilmoqda.

Respublikamiz hududida juda ko'p dorivor o'simliklar o'sishini inobatga oladigan bo'lsak, biz izlanuvchilarga qaramay, bu borada tadqiqotlar uncha yetarli emas. Shu bilan birgalikda O'zbekiston farmatseftika sanoatining dorivor o'simliklarga bo'lgan talabi katta bo'lib, bu mahsulot asosan chetdan qimmat narxlarda keltiriladi. Shuning uchun dorivor o'simliklarni yetishtirish, hamda ulardan biofaol moddalarni ajratib olish muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Bu borada samarali yo'llardan biri dorivor o'simlik xom ashyosidan turli xil dori vositalarini ekstraksiyalashdir. Bu yo'nalishdagi izlanishlar kundan-kun ortmoqda, ammo hali ko'p tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

O'lkamizda o'sadigan bir qancha dorivor o'simliklar bargi va urug'idan dori vositasi ajratib olish hamda ularning fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish dolzarb masaladir, misol uchun bir qancha o'simliklarni keltirishimiz mumkin.

Tarkibida polisaxaridlar bo'lgan dorivor o'simliklardan biri katta zubtutum. O'simlik barglari yil bo'yi yig'iladi, yupqa qilib yoyib, soya yerda quritiladi yoki quritmay ishlatilsa ham bo'ladi. Kimyoviy jihatdan tahlil qilganimizda tarkibida aukubin (rinantin) glikozidi, achchiq, shilliq va oshlovchi moddalar, flavonoidlar (apigenin, gomoplantagenin, lyuteolin va skutellyarein glikozidlari va boshqalar), karotin hamda askorbin, limon kislotalar, va vitamin K bo'ladi. Zubtutum dorivor o'simlik bo'lib, uni damlama, nastoyka, yangi yig'ilgan, quritilmagan bargning konservatsiya qilingan shirasi, plantoglyutsid preparati, barg briketi tayyorlab ishlatilsa bo'ladi.

Yana bir yurtimizda o'sadigan dorivor o'simliklardan biri jag'-jag'dir. Jag'-jag' bir yillik, bo'yi 20-30 smga yetadigan o'simlik bo'lib, aprel oyidan boshlab kuzgacha gullaydi, mevasi iyundan boshlab yetiladi. Kimyoviy jihatdan tarkibida gissopin glikozidi, burso kislotasi, 0,12% askorbin kislotasi, vitamin K1, olma, limon, vino, fumar kislotalar, xolin, atsetilxolin, tiramin, inozit, flavonoidlar (diosmin va boshqalar), saponinlar, 28 % yog', oshlovchi hamda boshqa birikmalar bo'ladi.

Jag-jag o'simligi qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda keng miqyosda ishlatilib kelingan. Ibn Sino jag-jagdan asosan qon to'xtatuvchi vosita shifatida (bachadon, meda, o'pka, buyrak, burundan va yaralardan qon oqqanda, bavoil kasalligida) foydalangan.

Yaralardan, shilingan joydan va burundan qon oqishini toxtatish uchun yangi uzilgan bargni ezib, qon oqqan joyga qo'yiladi. O'simlik damlamasi ichdan qon oqishini to'xtatadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki yurtimizda o'sadigan dorivor o'simliklar juda ko'p o'sishini inobatga oladigan bo'lsak, hozirgi kunda ilmiy izlanishlar uncha yetarli emas, dorivor o'simliklardan efirlarni ajratib olish va kerakli maqsadlarda foydalanish mumkinligini tushuntirib berish hozirgi zamonaviy kimyoning asosiy maqsadidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жумаев Ж. Х., Шарипова Н. У. СТРУКТУРНО-МЕХАНИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ КОМПОЗИЦИОНА ОСНОВЕ ЭЛЕКТРОХИМИЧЕСКОГО МОДИФИЦИРОВАННОГО КРАХМАЛА И ПОЛИМЕРОВ //Интернаука. – 2017. – №. 5-2. – С. 34-36.
2. Шарипова Н. У. ХИМИЧЕСКАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ И ОКРУЖАЮЩАЯ СРЕДА //Universum: химия и биология. – 2022. – №. 5-1 (95). – С. 19-21.
3. Жумаев Ж. Х., Шарипова Н. У. Влияние растворителей на процесс взаимодействия морфолина с винилацетиленом //Universum: химия и биология. – 2020. – №. 11-2 (77). – С. 4-7.
4. Шарипова Н. У., Мухамадиев Б. Т., Шарипова Н. У. ХРАНЕНИЕ, ТРАНСПОРТИРОВКА И РЕАЛИЗАЦИЯ КРИО ИЗМЕЛЬЧЕННЫХ И ЗАМОРОЖЕННЫХ ПРОДУКТОВ РАСТИТЕЛЬНОГО ПРОИСХОЖДЕНИЯ //Universum: технические науки. – 2021. – №. 2-2 (83). – С. 100-103.
5. O'ktamovna S. N., Rizayevna A. N. O 'ZBEKISTONDA O 'SADIGAN DORIVOR O 'SIMLIK LARDAN ESKTRAKSIYA USULI BILAN EFIR MOYLARINI OLISH //E Conference Zone. – 2022. – С. 281-283.
6. Бердиева З. М. ЮҚОРИ ТАРКИБЛИ ТРАНС-РЕСВЕРАТРОЛ САҚЛАГАН ҚОРА ТУТ ТАБИЙ ХОМАШЁ СИФАТИДА //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 22. – №. 2. – С. 8-12.
7. Садикова М. И., Шухратовна Қ. С. КООРДИНАЦИОН БИРИКМАЛАР НАЗАРИЯСИ //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE

- EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2022. – Т. 2. – №. 17. – С. 63-67
8. Juraeva L. R., Qurbonova S. S. Separation Of Mononuclear Arenes in The Deg+ DmsO System //Czech Journal of Multidisciplinary Innovations. – 2022. – Т. 11. – С. 53-57.
 9. O'ktamovna S. N., Siddiqovna A. D. THE ROLE OF THE CHEMICAL INDUSTRY IN ENVIRONMENTAL POLLUTION //E Conference Zone. – 2022. – С. 34-35.
 10. Садикова М. И., Мухамадиев Б. Т. Использование плодовоовощных криопорошков в пищевой технологии //Universum: химия и биология. – 2021. – №. 4. – С. 46-49.
 11. Мухамадиева К. Б., Каримова З. М. Математический аппарат процессов криообработки растительных материалов //Universum: технические науки. – 2020. – №. 6-2 (75). – С. 73-75.
 12. Каримова З. М., Каримов М. М. СТРОЕНИЕ КОМПЛЕКСОВ ПЕРЕХОДНЫХ МЕТАЛЛОВ С АЦИЛ-ТИО-АЦИЛГИДРАЗОНАМИ И ТИОСЕМИКАРБАЗОНАМИ ДИАЦЕТИЛА //PEDAGOGS journali. – 2022. – Т. 22. – №. 1. – С. 148-152.
 13. Makhmudovna K. Z. Investigation of the Influence of the Nature of the Solvent on the Properties of Solutions of Grafted Triacetate Copolymers //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – Т. 6. – С. 86-89.
 14. Makhmudovna K. Z., Anvarovich O. A. Mathematical apparatus for the cryoprocessing of plant materials //epra International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-Peer Reviewed. – 2021. – Т. 7. – №. 4. Mahmudovna, Karimova Zilola. "Erituvchi tabiatining payvandlangan triasetat sopolimerlari eritmalari xususiyatlariga ta'sirini o'rganish". Texas multidisipliner tadqiqotlar journali 6 (2022): 86-89.
 15. Каримова, Зилола Махмудовна. "МАККАЖЎХОРИ КРАХМАЛИНИНГ ХАЛК ХЎЖАЛИГИ КИМЌ САНОВАТИ ВА ТИРИК ОРГАНИЗМДАГИ РОЛИ." Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities 11.4 (2023): 319-324.
 16. Каримова, Зилола Махмудовна. "СТРОЕНИЕ КОМПЛЕКСОВ ПЕРЕХОДНЫХ МЕТАЛЛОВ С АЦИЛ-ТИО-АЦИЛГИДРАЗОНАМИ И ТИОСЕМИКАРБАЗОНАМИ ДИАЦЕТИЛА." Интернаука 7-2 (2017): 5-8.
 17. Mahmudovna, Karimova Zilola, Barnoeva Shakhnozabonu, and Kholmurodov Rustam. "SAFETY OF CO₂-EXTRACTS FROM NATURAL PLANTS." E Conference Zone. 2022.
 18. Sharipov, J., Barakayev, F., Fozilov, S., Karimova, Z., & Zaripov, M. (2022, June). Increasing the resistance of the cutting tool during heat treatment and coating. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 050042). AIP Publishing LLC.